



'MOTHERLAND - ONA VATAN' KONSEPTINI IFODALASHDA SHE'RIYATNING ROLI VA AHAMIYATI

Javliyev Mansurbek Odil o'g'li ¹

¹ Termiz davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5759449>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Konsept, Vatan, she'riyat, she'r, adabiyotshunoslik, tarjima.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola "Motherland - Ona Vatan" konsepti mavzusini adabiyotshunoslikning muhim janrlaridan biri hisoblangan she'riyat misolida ochib berishni maqsad qiladi. Shuningdek, maqola mavzusi ingliz va o'zbek tillaridagi bir qancha mashxur she'rlar misolida chuqur tahlil qilinadi.

Barchaga ma'lumki, she'riyat adabiyotshunoslikning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi. U bugungi kunda, nafaqat butun dunyoda, balki yurtimizda ham takomillashib, o'zining yuksak cho'qqisiga chiqib bormoqda. She'riyat — she'riy asarlar majmuidir. Dastlab she'riyat deyilganda, umuman badiiy adabiyot tushunilgan. She'riyat badiiyatga daxldor sanalgan. Insoniyat tarixida faqat she'r shaklida yozilgan bitiklarga so'z san'atiga tegishli hisoblab kelingan. Garchi qadim zamonlarda ham nasrga oid asarlar yaratilgan bo'lsada, ular nafis san'atga, badiiy adabiyotga tegishli emas, deb qaralgan. She'rning muayyan ichki tartib asosiga qurilganligi, oddiy so'zlashuvga o'xshamasligi, hamma ham fikru tuyg'ularini bu shakdda ifodalay olmasligi unga qandaydir sirlilik, mumtozlik maqomini beradi. Bunday qarash

butun dunyoda hukmron bo'lgan. Yevropada Uyg'onish davriga kelibgina nasriy asarlar badiiy adabiyotga tegishli ekanligi tan olingan. Rossiyada 19-asr boshlarida nasriy asarlar ham badiiy adabiyot namunalari sanaladigan bo'ldi. Musulmon Sharqida esa, nasrni so'z san'atiga tegishli, deb hisoblamaslik 19-asr oxirlariga qadar davom etib keldi. Alisher Navoiy "Hayrat ulabrор" asarida chamanzordagi gul kabi go'zal va tartibli she'r (nazm)ning tuproqqa qorishib yotgan chechak singari bo'lgan nasrdan mislsiz darajada ustun ekanligini "Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i, Nasr qaro yerg'a sochilmog'lig'i" va "Bo'lmasa e'joz (mo'jiza) maqomida nazm, Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm" tarzida ifoda etadi. Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti tarixida she'riyat ustuvor o'rin tutadi.[1]



Mazkur maqolada o'zbek xalq shoiri Erkin Vohidovning 1968-yilda yozilgan, hammaga mashxur, 'O'zbekim' qasidasi va ingliz adibi, tanqidchi va muharrir William Ernest Helleyning o'z vatani Angliya uchun atab yozgan 'England, My England' she'rlari va shuningdek [Vatan mavzusidagi](#) boshqa she'rlarda vatan talqini va uning qanday aks etishini ko'rib chiqiladi. Dastlab, ko'ngil mulkini taroj aylagan qalb egasi, o'zbek shoiri Erkin Vohidov va uning 'O'zbekim' qasidasiga to'xtaladigan bo'lsak, adibning vatani boshiga musibatli kunlar tushganida ham o'z istiqloli uchun qalbdagi tuyg'ularini baralla ayta olganiga tasannolar aytsa arziydi. Uning har bir she'rlarida insonning yuragida his uyg'otadigan kuch mavjud. "O'zbekim" qasidasi haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov shunday degan edilar: "Haqiqiy ijodkor o'z xalqining fidoyi va sodiq farzandi bo'ladi. Bu hamma zamonlarga, hamma xalqlarga xos udum. Erkin Vohidovning talay asarlari bunga misol bo'la oladi. Birgina "O'zbekim"ni oling! O'z vaqtida shoirning boshiga ko'p savdolar solgan, "peshonasini g'urra qilgan" bu qasidani o'zbekning gimni deyish mumkin. Ammo bu oddiy madhiya, faxriya emas. Hajmi kichik asarda xalqimizning ming yillik tarixi, quvonch va iztiroblari g'oyat tabiiy, g'oyat teran aks etgan. Bir maktabga borganimda butun sinf bolalari "O'zbekim"ni boshidan oxirigacha jo'r bo'lib yoddan o'qiganini ko'rganman va xalqimizning shunday shoiri borligidan faxrlanganman..." [2]. Shuningdek, ushbu qasida O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Qasida kabi qo'shiq ham a'lo darajada ijro e'tilgan. Quyida qasidadan parcha keltiriladi:

*Tarixingdir ming asrlar, Ichra pinhon,
o'zbekim,*

*Senga tengdosh Pomiru, Oqsoch Tiyonshon,
o'zbekim.*

*So'ylasin Afrosiyobu, So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida, Bitta marjon, o'zbekim.*

Qasida yuqoridagi misralar bilan o'zbek xalqining shavkatli tarixiga sayohatdan boshlanadi. O'z o'tmishini, ota-bobolari merosini bilish millatga g'urur iftixor bag'ishlaydi, uni o'zligini anglash, haq-huquqini tanish darajasiga olib chiqadi. Erkin Vohidov o'zbekning ming asrlar ichra pinhon tarixini ko'hna Samarqandda saqlanib qolgan Afrosiyob Yodgorligidan, O'rxun va Enasoy daryolari qirg'oqlaridan topilgan qadimgi turkiy toshbitiklaridan izlash lozimligini aytadi.

O'zbek shariyati va Erkin Vohidovning 'O'zbekim' qasidasi haqida 2016-yilda S.Tolkun tomonidan ingliz tilida chop etilgan maqolada shunday deyiladi: *'Uzbek poetry was founded both under the influence of tradition and contemporary trends. Poets, who couldn't express themselves rightly under the oppressive Soviet regime, they reached freedom of expression after independence. Erkin Vahidov is one of the prominent names in modern-day Uzbek poetry. He had drawn attention during the Soviet period by writing the eulogy named 'O'zbekim' and accordingly the reaction of the Communist Party. The poet, who usually writes lyrical poems, also has verses in Western and Classical Turkic styles'*.

William Ernest Henley Angliyada Viktoriya davrining nufuzli shoirlaridan biridir. U hayoti davomida ko'plab she'riy kitoblar yozgan. Uni dunyoga tanitgan mashxur she'rlaridan biri 'Invictus'(1875) hisoblansa, yana biri o'z ona yurtiga bag'ishlab yozgan 'England, My England' she'ridir[3]. Quyida she'rning bir qismi keltiriladi:



*WHAT have I done for you, England, my
England?*

*What is there I would not do, England, my
own?*

*With your glorious eyes austere,
As the Lord were walking near,
Whispering terrible things
and dear,*

*As the Song on your bugles blown,
England - Round the world on your bugles
blown!*

Ingliz tilini o'rganuvchilar, tarjimonlar shuni bilishadiki, ingliz tilidagi she'rlarni o'zbek tiliga tarjima qilish biroz murakkab ish. Chunki she'r janrining asosiy qismi uning qofiyadoshligi bilan bog'liq. She'rlar bir tildan ikkinchisiga tarjima qilinganida bu qofiyani saqlab qolish qiyin masaladir. Shunday bo'lsa ham, tarjimadagi biroz qiyinchiliklar va noqulayliklarga qaramasdan, William Ernest Henleyning ushbu she'rining parchasini o'zbek tilida tarjima qilishga harakat qilib ko'rdik:

*Men sen uchun nima qildim, Angliya, mening
Angliyam?*

*Bu yerda men qilolmaydigan nima bor,
Angliyam o'zimning?*

Sening ulug'vor ko'zlaring nidosi bilan,

Egamiz yaqinlashayotganidek,

*Daxshatli narsalarni pichirlayotgan va
azizim*

Nog'oralaring chalingan paytdagidek,

*Angliyam - butun olam uzra sening torlaring
chalinadi.*

'Mening Angliyam' she'rini o'qib, shoirning o'z vatanini naqadar sevib ulug'laganini ko'rish mumkin. 'Butun olam bo'ylab sening torlaring chalinadi' deganda

shoir vatanining naqadar buyuk ekanligiga ishora qilyapti. Darhaqiqat, Angliya zamonamizning taraqqiy etgan va eng rivojlangan davlatlaridan biridir. Ushbu she'r 20-asr boshlarida yozilgan va tarixdan ma'lumki, o'sha davrlarda ham ushbu yurt eng buyuk mamlakatlar qatorida bo'lgan. Tarjimaga to'xtaladigan bo'lsak, albatta, ona tilimizda, tarjima qilingan she'rni g'ayritabiiyroq eshutilishi shubhasiz, xo'sh ingliz tilida O'zbekistonga atab yozilgan she'r qanaqa bo'ladi, bunga xavaskor shoir Maqsud Temirov tomonidan yozilgan 'Uzbekistan - My Motherland' she'ridan parcha orqali javob izlab ko'ramiz:

Uzbekistan and my Tashkent

My motherland, my motherland

Number one gift Almighty sent

Almighty sent, Almighty sent

She'r biroz soddaroq tilda yozilgan bo'lsa ham, uning ichidagi olam olam ma'noni "Alloh bergan tuhfa" jumlasini o'qishdayoq sezish mumkin. Shu o'rinda atoqli va ma'rifatparvar shoir Sidqiy Xondayliqiyning mana bu satrlariga e'tibor bering:

Vatan nadir? Tuqqan yerim, Turg'on yerim.

O'sib-unib, o'ynab kulib yurg'on yerim...

*Jonim - Vatan , tanim - Vatan, ko'zim -
Vatan.*

Esdan chiqar oni ko'rgoch, ko'rgon yerim.

She'rning birinchi qatoridagi jumlar tug'ilgan va yashaydigan makonga, ikkinchi qatordagilari esa o'sib ulg'aygan joyga ishora qilyapti. Umuman olganda she'rda shoirning vatanga bo'lgan



muhabbati to'liq ifodalagani namayon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "[Motherland - Ona Vatan](#)" konseptini she'riyat vositasida o'rganish jarayonida ushbu tushunchaga alohida to'xtalib o'tildi va maqola she'riy tahlillar bilan boyitildi. Vatan mavzusini bu yo'nalishlar orqali ochib berish uchun asosan o'zbek adabiyoti manbalari xizmat qilgan bo'lsa, ingliz va jahon adabiyoti

namunalari bu yo'lda ko'maklashuvchi vosita vazifasini o'tab berdi. Xususan, taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidovning o'zbekim qasidasi va ingliz adibi, William Ernest Hellenning 'England, my England' she'rlari qiyosiy aspektda tahlil qilindi, hamda ingliz shoirining ushbu, 'Angliyam, Mening Angliyam' she'ri qisman, ya'ni to'liq bo'lmagan holda, o'zbek tiliga tarjima qilindi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida Vatanga atab yozilgan eng sara she'rlardan namunalar keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "She'riyat" [O'zME. Sh-harfi](#) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <http://uforum.uz/showthread.php?t=1565>, [Shoir bilan suhbat](#)
3. *Mehew, Ernest. "William Ernest Henley, (1849–1903)." in Oxford Dictionary of National Biography [2004 Ed.], Oxford, UK". Oxford Dictionary of National Biography (online ed.). Oxford University Press. Retrieved 8 May 2015. (Subscription or [UK public library membership](#) required.)*
4. Ruziyev, K. (2021). ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ РАЗЛИЧИЯ. Связь.
5. Ruziyev, K. (2021). ЭТИМОЛОГИЯ СЛОВА И ТЕРМИНА ПАРЕМИЯ. Связь.
6. РУЗИЕВ, Х. Б. И СИДИКОВА, С. А. К. (2019). ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПОСЛОВИЦ И НЕКОТОРЫЕ СПЕЦИАЛЬНЫЕ СОВЕТЫ ПО ПЕРЕВОДУ С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ. Наука среди нас, (5), 100-105.
7. Gerasimova, S. S. (2020). PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH IDIOMS INTO UZBEK. Актуальные научные исследования в современном мире, (11-12), 14-16.
8. Gerasimova, S. S. (2020). The analysis of animal idioms in different languages by translating strategies. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (6), 59-61.
9. GERASIMOVA, S., & TIMUR, M. The Analysis Of Richard A Vias Never On Wednesday Based On Brown And Levinson's Politeness Strategies. JournalNX, 6(05), 223-227.
10. Mukhamadiev, T., Wijayanto, A., & Hikmat, M. H. (2018). The Impoliteness Strategies in Press Conference of Floyd Mayweather And Conor McGregor (Doctoral dissertation, Universitas Muhammadiyah Surakarta).
11. Mukhamadiev, T. (2021). FEMINIST ANALYSIS OF QAISRA SHEHRAZ'S NOVEL THE HOLY WOMEN. InterConf.
12. Mukhamadiev, T. (2021). PSYCHOLOGICAL APPROACH OF THE SUPER EGO OF HARRY POTTER IN THE HARRY POTTER AND PHILOSOPHER OF STONE. InterConf.
13. Khodjaeva, N. T. (2019). Some Peculiarities And The Ways Of Giving Instructions On Reading Tests. *International Journal of Research*, 499-505.



14. Khodjaeva, N. (2021). TEACHING GRAMMAR AND UNDERSTANDING MEANING IN CONTEXT. *InterConf*.
15. Ходжаева, Н. Т. (2018). УЛУЧШЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ НАВЫКОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Гуманитарный трактат*, (38), 6-7.
16. Khodjaeva, N. T. (2020). MODIFYING MATERIALS ON LISTENING COMPREHENSION. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (11-12), 28-31.
17. Ходжаева, Н. Т., & Бахриддинова, М. Ш. (2020). Стилистические характеристики специальных текстов при информативном переводе. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 95-98.
18. Ходжаева, Н. Т. (2017). Современные методы обучения Английскому языку. *Вестник современной науки*, (2-2), 100-101.
19. Tukhtaevna, A. K. (2020). The tendency of teaching English as a second foreign language. *Вестник науки и образования*, (9-3 (87)), 57-59.
20. Tukhtaevna, A. K. (2021). THE PRACTICAL OVERVIEW OF FOREIGN LANGUAGE LEARNING MOTIVATION. *Вестник науки и образования*, (8-3 (111)), 35-37.
21. Farmanov, G. (2021). FORMAL STYLE IN DOCUMENTS' WRITING. *InterConf*.
22. Рузиев К. Б. (2020). Пословицы и корпусная лингвистика. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 64-67.